

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМИ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**Профессор - ўқитувчилар ва талабаларнинг  
«Халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари  
йўли»га бағишланган анъанавий  
62 - илмий-назарий анжумани**



**МАТЕРИАЛЛАРИ ТУПЛАМИ**

**Бухоро – 2018**

ишлар тартиби бўйича батафсил йўриқнома ёки кўрсатмани айтиш бериш мумкин;

- талаба назоратининг шакли ва тури: ёзма-эссе, ҳисобот, реферат ва бошқалар, мазҳаб-тақдирот, саволларга жавоб бериш ва бошқалар, шунингдек ҳар бир ўқув топширигининг баҳолашнинг сифат ва миқдорий мезонлари билан таништирилган бўлиши зарур;

- ўзини ўзи текшириш учун ҳар бир ўқув машғулотига тавсия этилаётган топшириқ (тест, савал, вазифа ва машқлар) жорий педагогик назоратини ва талаба томонидан бажарилаётган таълимий мақсадларга эришни дарожадорлиги доимий ўзи баҳолашнинг таъминлайди;

“Ўқув фани бўйича талабани ўқув натижаларининг ютуқлар қараши” шўлаб чиқиш. У талаба томонидан рейтинг баҳоларнинг тўқиланиши тўғрисида тезкор маълумотларни олишнинг воситаси ҳисобланади

Замонавий таълим технологияларини амалга ошириш шароитида талаба хўндагумумўқув (ҳар қандай ўқув фанини мувоффақият билан ўзлаштириш учун зарур бўлган) кўникма ва малакаларга эга бўлиши керак:

- 1) маълумот билан мустақил ишлаш: асосий ҳолатларни аниқ, қизмавий ва изчилликда конспект кўришида қайд этиш; ўқув топшириқ ва вазифаларни ечиш учун зарур бўлган ахборотларни топиши, таниши, тушуниши, танқидий баҳолаши, уни йиғиш ва реферат, ҳисобот, белгиларда, шунингдек графикли ташқил этиувчилар кўришида тақдим этиш; берилган талабларга мувофиқликда ўзининг шахсий илмий матнини (мақола, мазҳуба, тезис) яратиш;

- 2) тақдим этиш малакалари: ўқув топширигини бажариш натижалари бўйича сўзлаётганда ўзини далил тутиши, турли кўргазмани воситалардан фойдаланиши;

- 3) ўқитувчи билан талабани ўқув ўзаро ҳаракатни ташаббуслаш, ўз нуқтан назарини ҳимоя қилиш ва муроса йўлини топиш, суҳбатга киришиш, ҳақиқат бўйича саволлар (ёриш, далилий жавоблар бериш, мунозара қондаларига риоя этиб ўзи олиб бориш, тортишулардан шўтирок этишнинг мулоқотлашу малакалари;

- 4) гуруҳли ўзаро ҳаракатга тайёрлиги ва қобилиятида – ўқув топширигини бажариш бўйича ҳамкорлик фаолиятини жамоатий режаларда, умумий вазифани ечишда ҳамкорий мулоқот ва ўзаро ҳаракат, ўзаро ёрдам ва ўзаро баҳолашда намоён бўладиган ҳамкорликда ишлаш малакалари;



5) муаммони маърузада фаол иштирок этишни ва таълимий вазифаларни (Кейс-стади) ва бопгаларни ечишни таъминловчи муаммони вазифаларни тахлил қилиш, ўқув топшириқини ечишнинг оддий бўлмаган йўлларини топиш, ҳаяларни ишлаб чиқиш ва ҳулосаларни қабул қилиш малакалари;

б) ахборот ишлаш, йиғиш, қайта ишлаш ва сақлаш учун замонавий компютер ва ахборот технологияларини қўлланшни амалий малакалари.

*Бироқ буларга талаба ни ўргатиши керак!*

Таълимдаги ҳуқуқий, иқтисодий, эк ологик билим ва тарбия беришга янада кенгрок илмий ва амалий ёндашимизни ҳаёт кўрсатишда. Маънавий баркамол халқини ҳар жаъҳада ютуқларга эриштирадан Шунинг унутмаслик керакки, илгор фикрлар – ютуқлар гарони бўлибгина қолмай келажакни ҳам белгилайди. Унинг натижаси эса баркамол явлодни юлга етказди.

## **CHOR ROSSIYASINING TURKISTONDAGI IQTISODIY VA SOLIQTIY SIYOSATIDA YURITGAN BEBOSHLIGI**

*Ilmiy rahbar: o'qituvchi J.G. Zaripov*

*Tarix" fakulteti 3-bosqich talabasi A.A. Ahmadov*

Sovet mustamlakachiligi davrida Turkiston xalqlarining ko'p bora qadri-qimmatlari toptalganligini ko'rishimiz mumkin. Biz to'xtalib o'tayotgan iqtisodiy va soliq siyosati borasidagi beboshliklar Chor hukumatini tomonidan juda ko'plab sodir etilib, bu oddiy xalqning bir necha bor kamsitilib, uning yashash tarzini yanada qiyinlashtirib yuborilganligi fikrimizning isboti bo'lib hisoblanadi. Bu borada sovet hukumatini O'rta Osiyodan juda ko'plab mahsulotlar tashib ketilar, ulardan Rossiya va jahon bozorlarida, rus sanoatida juda katta daromad olinardi. Lekin bu daromad Rossiyadagi yirik mulkdorlar, amaldorlar, savdogarlar, sarmoyadorlar cho'ntagini boyitardi, ular Turkistondagi daromadli tarmoqlar va sohalarni allaqachon egallab olib, o'lkani butun boyligini zulukdek so'rardilar. Ayni paytda, mustabid davlat ulardan katta miqdorda daromad solig'i, boj to'lovlari undirib, o'z xazinasini boyitardi. Oddiy xalq esa ular qo'lida eng qoni ishlarni bajarar, biroq peshona teri, og'ir mehnati bilan yaratilgan noz-nemalar, moddiy boyluklar buzurini ko'ra olmay, og'ir turtush kechirar, arzimagan ish haqqi olib, soliqlar, majburiyatlar va to'lovlardan qarzga botib yotardi.

Rossiyaning Turkistondan olgan daromadlari yil sayin quyidagicha o'sib bordi:

|          |              |          |              |
|----------|--------------|----------|--------------|
| 1868-yil | 1484577 rubl | 1874-yil | 2727430 rubl |
| 1869-yil | 2187396 rubl | 1875-yil | 2736354 rubl |
| 1870-yil | 1864312 rubl | 1876-yil | 3733696 rubl |
| 1871-yil | 1822102 rubl | 1877-yil | 3495481 rubl |
| 1872-yil | 1879266 rubl | 1878-yil | 3822297 rubl |
| 1873-yil | 2616110 rubl | 1879-yil | 4053270 rubl |

Bundan ko'rishimiz mumkin, mustabid davlatining Turkistonda olgan daromadi 1868-1879-yillarda deyarli 3 barobar ortgan va 12 yil davomida yangi daromad 32 mln. 423 ming 391 rublni tashkil etgan. Ammo, General-gubernator fon Kaufman keltirgan bu daromadlar jadvaliga Samarqand, Farg'ona viloyatlaridan olingan daromadlar to'la kiritilmagan.

Tadqiqotchi A. Stetkevichning hisob-kitobiga ko'ra Rossiyaning Turkistondan 1869-1896-yillarda, o'lkadan bevosita olgan daromadi 158 mln. rub. bo'lgan.

Ma'lum bo'lishicha, Samarqand, Farg'ona to'liq bosib olingach, imperiyaning daromadlari keskin ortgan. Qayd etilgan raqamlar bevosita davlat xazinasiga tushgan, daromadlar hisobi, xolos. Vabotanki O'rta Osiyoni bosib olish jarayonida imperiya qo'shinlari o'ljaga olgan va talagan boyliklar hisobi ulardan bir necha barobar ortiq bo'lgan va bu jadvallarda qayd etilmagan. Chunonchi, Buxoro amiridan 500 ming, Xiva xonidan 450 ming rubl tovon undirilgan. Xiva xoniga umumiy hisobda 2 mln rubl tovon yuklarub, 20 yil davomida to'lash majburiyati yuklatilgan. Xiva xoni saroydagi xonlik xazinasini butunlay tashib keltirilgan. Qo'qon xoni saroyini talaganlar. Andijondan 33ming rubl tovon undirilgan. Polatxonning o'rdasidagi xazinasini, mol-mulki o'lja olingan. Marg'ilon bekligiga 125000 tilla 500 ming rubl tovon solingan. Qancha yuz ming qoramol, qo'y, tuya, to'plar, qurollar, o'lja olingan. Bu o'ljalar va pullar hisobi yuqoridagi hisob kitoblariga kiritilmagan. Davlat xazinasining daromadi asosan xalqdan olingan. To'lovlar, boj, soliqlar hisobidan bo'lganini quyidagi ma'lumotlar tasdiqlaydi:

|               |                                   |
|---------------|-----------------------------------|
| Zakat         | 1854682 r. (Farg'onadan tashqari) |
| O'tov solig'i | 8278845 r.                        |
| Yer solig'i   | 2651044 r.                        |
| Jon solig'i   | 53417 r.                          |
| Savdo solig'i | 3406310 r.                        |

Chor hukumatining Turkiston aholisidan olgan soliqlari 1913-yilda 23 mln rublni tashkil etgan bo'lsa, 1916-yilda 33.3 mln rublga yetgan.



Turkistondagi yer solig'i 1914-yilda 6859021 rubl bo'lgan bo'lsa, 1916-yilda 14311771 rublni, ya'ni ikki barobarni tashkil qildi. 1915-yilda esa maxsus harbiy soliq solinib, u paxtakorlar uchun har pud paxtadan 2 rubl 50 tiyinni tashkil qilgan. Biroq bu hali hantimasi emas. Imperiya xazinasiga bevosita boshqa manbalardan kelgan barcha foyda daromadlar bu hisob kitoblarda to'la aks etmagan. Bu hisob kitoblarga Rossiyadagi sarmoyadorlar, savdogarlar amaldorlar turli yo'llar bilan o'zlashtirgan barcha moddiy, tabiiy boyliklar ham kiritilmagan. Masalan, Turkistonda bosib olib, uning iqtisodini o'z manfaatlariga bo'ysuntirgan, o'lkada paxta yakka hokimligini qaror topdirib, bunda o'z sanoati uchun eng yuqori darajada foydalangan chor hukumati aynan shu sohada ya'ni paxta xom ashyosiga ega bo'lishda qanchadan qancha foyda ko'rgan.

Bundan tashqari imperiya xazinasining bevosita daromadlaridan bo'lgan boj to'lovi paxta uchun 1879-1896-yillarda Rossiyaga kirib kelgan Paxta uchun xazinaga tushgan boj to'lovi miqdori 203 mln. rubl bo'lgan.

Agar Rossiya 26 mln. pud paxtani O'rta Osiyodan emas chet eldan olib kelganida bu Rossiya uchun yo'l xarajati va paxta narxi bilan 256 mln. rublga tushar edi. Demak imperiya xazinasidan shuncha pul tejab qolingan.

Turkistondan paxta olib kelish, bo'lib sotish bilan shug'ullangan savdogarlar esa har bir pud paxtadan bir rubl foyda qilgan, demak, faqatgina savdo firmalari 26 mln. pud paxtadan 26 mln rubl foyda ko'rganligini ko'rishimiz mumkin.

Imperiyaning o'lkadan keyingi yillarda nafaqat paxtachilikdan balki, boshqa sohalarda ham olgan daromadlari yil sayin o'sib borganini nazarda tutib, yuqorida keltirilgan mln lar miqdori bir necha bor oshib ketishi aniq. Bu mustabid davlatning o'z hukmronligini o'rnatgandan so'ng dastlabki 25, 30 yildagi daromadlarining hisobi, xolos. O'lkani bosib olish jarayonidagi talon taroj, Turkistondagi mustabid ma'muriyaning o'z cho'ntagiga mahalliy aholidan undirgan mablag'lari ko'chirib kelingan rus oilalari hisobiga o'tgan yerlar, xo'jaliklar, mulklardan olingan daromadlar behisob.

Bu mablag'larga qanchadan qancha ilm maskanlari, inshootlar qurish, yurtni obodonlashtirish aholiga tibbiy va ijtimoiy yordamni ko'rsatish san maorif madaniyatini rivojlantirish Turkiston xalqi taraqqiyotiga, moddiy farovonlik obodonchilikka erishishi mumkin edi.

Turkistondan olingan daromadlar Imperiya uchun naqadar foydali bo'lganligi o'sha davrda Rossiyada tez tez yangrab turgan. "Turkiston-Rossiya tojidagi bebaho durdir" degan e'tiroflardan ham yaqqol ma'lum edi. Mustamlakachilar qanoatlanishini istamasdilar. Ular Turkistonga go'yo "O'zlari uchun yaratilgan bitmas-ruganmas boylik manbai", uning xalqiga esa "Shu boylikni ularga yetkazib beruvchi itoatkor qul" sifatida qarar edilar.

Yuqorida ko'rib o'tilgan iqtisodiy va soliq siyosati tomonidagi beboshliklarning Turkistonning mehnatkash xalqlarining bu'ymiga turdigan Chor hukumatining iqtisodiy foyda ilinjidagi hatti-harakatlari kunduzi xalqqa nisbatan aynisiz olib borilgan. Lekin bu o'rinda inson mehnatda toplangan xalqimizning o'sha davrdagi qiyinchiliklari, mustahkam tuzimning adolatsizligini, soliqlarning ko'pligini ham xalqimiz birin ketin yengib o'tganligini kelgusi avlod hech qachon unutmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alimova D.A Tarix shohidligi va saboqlari. - T., "Sharq", 2001-yil.
2. Sodiqov H, Shamsiddinov R, Ravshanov P, Usmonov Q Turkiston chor Rossiyaning mustamlakachiligi davrida I kitob. T., "Sharq", 2000-yil.
3. Alimova D.A, Rtveladze E.V O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherkleri. - T., "Sharq", 2001-yil.

### BUXORODA SOLIQ TIZIMI: AMIRLIK VA BXSР DAVRI QIYOSIY TIPOLOGIK TAHLILI

*To'rayev A.I*

*Bux DU "Tarix" kafedrası o'qituvchisi*

*Ahmadov A.A*

*Bux DU "Tarix" fakulteti 3-kurs talabasi*

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining turmush darajasini yaxshilash, istemol bozorini barqarorlashtirish, O'zbekistonning iqtisodiy jihatdan jahon hamjamiyatiga qo'sulishi yuzasidan muhim qadamlar qo'yildi. Bu borada soliq siyosati va soliqlarning roli katta bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Zeroki, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov o'zlarining "O'zbekiston - bozor munosabatiga o'tishning o'ziga xos yo'li" kitobida: "Bizning qat'iy nuqtai nazarimiz jahon tajribasi va o'z amaliyotimizdan olingan jamiki foydali tajribalarni rad etmagan holda o'zimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'limizni tanlab olishdan iboratdir", deb ta'kidlagan edilar<sup>1</sup>.

Bundan ko'rinib turibdiki, jahon davlatlari tajribasi bilan bir vaqtda o'zimizning amaliyotimizdan olingan tajribalarga ham suyanishimiz keraldi ta'kidlanmoqda. Bu o'rinda Buxoro amirligi va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davridagi soliqlar va soliq siyosatining o'xash va farqli jihatlari haqida to'xtalib o'tib bu soliqlarning ayrimlarining bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayonganligini ko'rishimiz mumkin.

<sup>1</sup> Yahyiyev Q O'zbekistonda soliq tizimi (o'quv qo'llanma) T., "Mehnat", 1993-yil, 3-bet.



Buxoro amirligida eng asosiy soliq bu yerdan olinadigan xiroj solig'i edi. Bu soliq amlokdor va oqsoqollar ishtirokida hosil pishib yetilgan paytda hosilga qarab belgilangan. Hajmi esa hosilning uchdan, to'rtidan ayrim hollarda beshdan bir qismi ko'rinishida bo'lgan. Dehqonlar amlokdor uchun o'n botmon yerdan yarim pud kafsani solig'ini, dorug'alar uchun kafsani dorug'a (hosilning kam hajmdagi ma'lum qismi) ham to'laganlar. Undan tashqari amir dalalarni aylanganda, harbiy harajatlar paytida ham qo'shimcha soliq va to'lovlar olingan.

Qonuniy yer solig'idan tashqari yer egalari har bir tanoh bog' yoki tomorqadan maxsus tanoh puli va yem-xushak yetishtiradigan yerlardan alaf puli olingan. Ular umumiy nomda tanohna deb ham yuritilgan. Bu soliqlar yerlarning bozor joylashgan joyga uzoq yaqinligiga qarab hajm jihatdan farq qilgan. Amir Nasrullo davrida amirlikning soliq tizimiga biroz o'zgartirishlar kiritiladi. Ya'ni, poliz ekinlari ekiladigan yerlar uchun qo'sh puli joriy etilgan. Keyinchalik bu soliq poliz ekinlari ekmaydigan boshqa yerlaridan ham olinadigan bo'lgan.

Amirlikdagi yana muhim soliqlardan biri – zakot edi. Zakot davlatning mol-mulkidan olinadigan solig'i bo'lib, mol-mulk narxining qiruddan bir hajmida undirilgan. Bu soliqning eng daromadli tomoni mahsulotlarga soliq solishi, shuningdek, savdogarlarning mahsulot uchun olib kelgan pullariga soliq solish bo'lgan. Zakot mahsulotlardan bir necha marta undirib olingan. Chorvachilik tumanlarida zakot mahsulot ko'rinishida (beshta tuyadan bitta qo'y yoki echki, qirqta qo'ydan bitta qo'y yoki echki kabi) undirilgan.

Urushlar davrida favqulodda soliq – julf undirilgan. Undan tashqari savdo-sotiqdan dalloli, boshqa viloyatlar va davlatlardan olib o'tilayotgan mahsulotlar uchun boj, daryodan mahsulotni qayiqda olib o'tgani uchun suv puli, bozordagi savdo joyi uchun puli taxtajoj, bir juft onmoj tortadigan ot yoki bo'kiz uchun yaksara (bir botmon g'alla), onmoj tortadigan bitta ot yoki bo'kiz uchun nimsara (yarim botmon g'alla) kabi soliqlar olingan. Yangi ariqlar va kanallar qazish ekitiluvini tozalash uchun mahalliy aholi boshlariga jalb etilgan. Ommaviy jamoat ishlariga ishtirok etmaganlardan shariatga ko'ra, hoqipuli deb ataluvchi jarima olingan. Soliqlar, to'lovlar va jarimalar pul va mahsulot ko'rinishida, mahalliy soliq yig'uvchilar hamda amir tayinlagan kishilar tomonidan yig'ib olingan.

Undan tashqari davlat (amlok) yerlari bukdor ham bo'lib, ayrim manbalarga ko'ra, davlat yerlaridan doimiy mavjud bo'lgan yer solig'i- xiroj olingan bo'lsa, boshqa manhalarda davlat yerlaridan hovulning katta qismini, ya'ni 40-50 foizi olinganligi qayd etiladi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Eshov B O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi.-T., "O'zbekiston Milliy Universiteti". 2012-yil, 302-bet.

|   |     |
|---|-----|
| LMS moodle tizimida "kompyuter ilmiga kirish" fanini elektron kursi nazariy mashg'ulotlar qismini yaratish                    |     |
| <i>Murodov H.Z., Arslonova M.</i>   |     |
| Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi G'ukent qishlog'ining tarixi va toponomiyasi   | 106 |
| <i>Salimova H.H., Xurramova M.</i>  |     |
| Shu'rlangan tuproqlarni melioratsiyalash yo'llari va qo'llaniladigan tadbirlar  | 109 |
| <i>Musafayeva M., Aminjonova Ch.</i>  |     |
| Environmental supranote algal flora of biological ponds of Bukhara  | 111 |
| <i>Edorova J.K., Ergasheva D.B.</i>   |     |
| Инсон билан мулоқотда замонавий компьютер техниклиги яварининг ўрни   | 114 |
| <i>To'loev X.M., Sardullov A.</i>   |     |
| Талабаларнинг мустаким фойдаланган исдалик билишларининг мазмун   | 116 |
| <i>J.G. Zaripov, A.A. Ahmadov</i>   |     |
| Chix rossiyasining Turkistondagi iqtisodiy va soliq siyosatida yuritgan beboshligi  | 119 |
| <i>To'rayev A.J., Ahmadov A.A.</i>  |     |
| Buxoroda soliq tizimi: amirlik va bixar davri qiyosiy tipologik tahlili   | 122 |
| <i>Jo'rayeva N.O., Yuldarov A.</i>  |     |
| O'zbek xalqi moddiy madaniyatida qadimiy diniy tasavvurlar va qarashlarning arxik tildari                                     | 125 |
| <i>Ergasheva M. K., Sulayimova Z.H.</i>   |     |
| Quyimozor suv omborining rekreatsion imkoniyatlari  | 128 |
| <i>S.M. Nazarova, D. Akramova</i>   |     |
| Tuproqlar unumdorligini oshirishning agrofizik usullari   | 130 |
| <i>X. To'loev, Z. Xujumov</i>   |     |
| Tafsiлий география фанининг замонавий муаммолари  | 135 |
| <i>Жумоев Ф., Насуллатов Р.</i>   |     |
| Ахлоқий обрў-этибэр кучи  | 137 |
| <i>M.C. Шарипов, У. Гануров</i>   |     |
| Создание и применение загущающих композиций на основе окисленного крахмала и водорастворимых полиакрилатов при вышивке тканей | 139 |
| <i>S.M. Gaffarova, Xadijuyeva Z. F.</i>   |     |
| Диз таркибидagi oqsilning abamiyati   | 142 |